

**NAVOIYNING „YO’Q“ RADIFLI G’AZALI QORAQALPOQCHA  
TARJIMASI**

**Zuhra Azilova Gulmon qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

*O’zbek adabiyoti kafedrasи o’qituvchisi*

+998944502494

[azilovazuhra@gmail.com](mailto:azilovazuhra@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Navoiyning Yo’q radifli g’azali qoraqalpoq tiliga tarjimasida asl nusxadagi poetik ruhni berishdagi tarjimon mahorati, vazni, shakl va mazmuni, yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi.

**Annotation:** The article analyzes the translator's skills, weight, form and content, achievements and shortcomings in the translation of Yo’q radif gazal by Navoi into the Karakalpak language in giving the original poetic spirit.

**Kalit so’zlar:** badiiy tarjima, g’azallar, qofiya, vazn, radif, taqqoslash, lirik qahramon.

**Keywords:** literary translation, poems, rhyme, weight, radif, comparison, lyrical hero.

Badiiy tarjima nihoyatda mas’uliyatli ish. Navoiydek buyuk shoirning asarlarini tarjima qilish tarjimondan nihoyatda kuchli bilim, mahoratni talab qiladi. Men bu yerda o’quvchi diqqatini Navoiyning zamondoshi Davlatshoh Samarqandiying buyuk shoir haqidagi bir qit’asiga jalb qilmoqchiman:

Turkisin ko’rub qilurlar erdi tark-u tavba ham

Gar tirik bo’lsalar erdi Lutfiy bilan Kardariy.

Bovujudi forsiy dar junbi sher komilash

Chist ashori Zahir-u, kist bori Anvari!! [2:6]

Navoiyning turkiy tilda yozgan she’rlarini Lutfiy, yo Kardariy ko’rganida edi, she’r yozishni qo’yib, tavba qilgan bo’lar edilar. Uning mukammal forsiy

she'rlari bor joyda Zahriyning she'ri nima-yu, Anvariyning ijodi nima?, deyiladi yuqoridagi to'rtlikda. Shunday yuksak bahoga sazavor bo'lgan benazir qalam sohibi Alisher Navoiyning „Yo'q“ radifli g'azali qoraqalpoq tiliga tarjimasi saviyasi qay darajada? Shu savolga javob topishga harakat qilamiz.

1977-1991-yillarda Navoiy g'azallari D.Aymuratov tarjimasida nashrdan chiqqan edi. Shoир g'azallari 2020-yilda „Qaraqalpaqstan nashriyotida qoraqalpoq tilida kitob holida bosildi. Kitobga S.Ibragimov va D.Aymuratov tomonidan tarjima qilingan g'azallar, aforizmlar, ruboiylar kiritilgan. Biz, shu kitobdan joy olgan Navoiy g'azalining tarjimasini asliyat bilan qiyosiy o'rghanish jarayonida „Tarjimaning saviyasi qay darajada? Tarjimon g'azalda navoiyona talqinni bera olganmi? G'azalda qofiya, vazn, radif saqlanganmi?“ degan savollarga javob topishga harakat qildik. Tarjimashunos olim G'.Salomov aytganidek, „zotan, hammadan ko'ra taqqoslash orqali narsalarning afzalligi to'g'riroq aniqlanadi va belgilanadi, taqqoslash-nafosatning eng maqbul sistemasi va tanqidi demakdir.“ [4:21]

D.Aymuratov tarjimasidagi „Yo'q“ radifli g'azali tarjimasini asliyat bilan qiyoslang.

Asliyatda:

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,  
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.

G'azal matlasida yorsiz ko'ngil sultonsiz mamlakatga, sultonsiz mamlakat-joni yo'q jismga o'xshatiladi. Qofiyasi: sultoni, joni. Radifi: yo'q.

Tarjimada:

Yardan ayra túskén kóníl patshalıqdur, sultani yoq.

Patshalıqdur sultani yoq, tulǵadur, lashdur janı yoq. [1:39]

Bir qarashda asliyat bilan tarjima o'rtasida unchalik katta farq yo'qdekkо'rinadi. Biroq, tarjimada birinchi misrada „túskén“, ikkinchi misrada „tulǵadur“ degan so'zlar qo'shilgan. „Tulǵa“ so'zi „Qaraqalpaq tiliniń tusindirme sózligi“da quyidagicha izohlanadi: . „Tulǵa. 1.Sırtqı kórinis, jota, pishim. 2. Awıs. Tirek, súyenish, ǵamqor [3:354]. Bu so'z ma'no jihatdan

misra mazmuniga mos kelsa ham uni qo'llash g'azal badiiyatiga putur yetkazgan. G'.Salamov yozadi: „V.G.Belinskiyning fikricha, badiiy tarjimada asarga biron narsa qo'shish, undan biron narsani olib tashlash yoki uni o'zgartirish mumkin emas. Tarjima qilishdan maqsad tilni bilmaslik natijasida kitobni o'qishga muyassar bo'lolmagan kishilarga ularning o'z ona tillarida o'qib bahra olishlari uchun mumkin qadar asl nusxa o'rnnini bosadigan asar yaratishdan iborat, toki ana shu tarjima orqali kitobxon asardan bahramand bo'lsin va u to'g'rida fikr yurita olsin“ [4:21]. Bu fikrni quyidagi misol bilan asoslaymiz. Ikkinci baytda jonsiz jism gul-u rayhonsiz, ya'ni hosilsiz tuproqqa o'xshatilgan. Ya'ni Ey musulmonlar jonsiz jismdan ne hosil unadi, u gul-u rayhoni yo'q qora tuproqdir“, degan ma'no kelib chiqadi.

Tarjimada:

Jansız tulǵa lash ne dárkar, aytıńlar, áy musılmanlar,

Ol bir qara jer emes pe ósken gúli-rayxanı yoq?

Bayt tarjimasida „tulǵa, aytıńlar, emes pe ósken“ degan so‘zlar qo'shib, g'azalning ohangi buzilgan. Mana, yana bir misol:

Asliyatda:

Bir qaro tufrog'kim, yo'qtur gul-u rayhon anga,

Ul qarong'u kechadekdurkim, mahi toboni yo'q.

Tarjimada:

Ol bir qara jer. Ol jerge rayxan gúli kógermeydi,

Ol juldızlı keshdur, aniń mahiy taban jananı yoq.

Tarjimada g'azal misrasi o'rtasida nuqta qo'yilishining o'zi noto'g'ri. Asliyatda ham misra o'rtasida tugal fikr, nuqta yo'q. Tarjima matnga o'xshab qolgan. Axir, Navoiy u yerga rayhon guli ko'karmaydi demoqchi emasku? Asliyatdagı ikkinchi misraga diqqat qilsak, bayt mazmunini anglaymiz: shoir gul-u rayhonsiz tuproqni mohi tabon ya'ni „porlab turgan oysiz qorong'u kecha“ga o'xshatadi. Mohi tabon porloq oy. Tarjimada „jananı“ so'zi qo'llanilgan. Janon so'zi esa asliyatda yo'q. Bu esa bayt ma'nosini o'zgartirib yuborgan. Quyidagi bayt tarjimasi ham yaxshi chiqmagan.

Asliyatda:

Ul qorong‘u kechakim, yo‘qtur mahi tobon anga,  
Zulmatedurkim, aning chashmayi hayvoni yo‘q.

Mazkur baytdan „ u porlab turgan oysiz qorong‘u kecha bo‘lsa, sarchashmasi ya’ni, obi hayoti yo‘q zulmat ekan-da“ degan ma’no anglashiladi. Tarjimada bu ma’no buzilgan.

Tarjimasi:

Ol kesh emes, túnekdur ol. Mahiy taban yoqdur onda,  
Ol jerde kózi bulaqtíń, hágli-hárem, háywani yoq.

„Tunek - qarańǵı, tas túnek“. Tarjimon, u kech emas, qorong‘i tundir, porloq oy yo‘q unda, u yerda bulaqning ko‘zi, hovli-haram, hayvoni yo‘q deb tarjima qilgan. Holbuki, „hágli-hárem, háywani“ degan so‘zlar asliyatda yo‘q. Ko’rinyaptiki, bayt mazmuni asliyatdagi mazmun bilan unchalik to’g’ri kelmayapti. Mana bu baytning tarjimasiga ham havas qilish qiyin.

Asliyatda:

Zulmatekim, chashmayi hayvoni oning bo’lmag’ay  
Do’zaxedurkim, yonida ravzai rizvoni yo‘q.

Baytda shoir hayot sarchashmasi ya’ni, obi hayoti bo’lmagan zulmatni jannat bog’idan yiroq bo’lgan do’zaxga tashbih qiladi.

Tarjimada:

Onda qarańǵı túnek bar. Onda dozaq bar. Jánnet yoq,  
Ol jerdiń dárt-dozaǵı bar, jánnet-dártke dármanni yoq.

Mazmuni: Unda qorong‘i tun bor. Unda do’zax bor. Jannat yo‘q. U yerning dard do’zaxi bor, jannat – dardga darmoni yo‘q. Aruz vaznida yozilgan g‘azallar o’ziga xos ohang bilan o’qilib, musiqiylikni yuzaga keltiradi. Tarjimada g’azal vazni, ohangi yo‘qolgan, bayt mazmuni ham asliyatga mos emas. Quyidagi misolga diqqat qiling:

Asliyatda:

Do’zaxekim ravzayi rizvondin o’lg’ay noumid,  
Bir xumoredurki, anda mastlig’ imkoni yo‘q.

Hayot sarchashmasi yo'q zulmat lirik qahramonni do'zaxiy kimsaning jannatdan noumidligi haqida so'zlashga undaydi. Do'zax esa shunday bir xumordurki, unda mastlikning imkoni yo'q. Mastlik ishq, yaratganga intilish. Jannat bog'idan yiroq bo'lgan do'zax deganda esa ishqisizlikni, ilohiy fayzdan bebahralikni tushunamiz.

Tarjimada:

Ol jerde tek dozaq bar. Onda jánnet qaydan bolsin,  
Ol jer bir sonday jer bolar mángilikke bayrami yoq.

Asliyatda ilohiy ishq talqin qilinadi. Ya'ni, Navoiy ishqqa oid qarashlarini bayon qiladi. Do'zaxda mastlikning ya'ni ishqning, yaratganga intilishning imkoni yo'q, deydi. Tarjimada esa „Ol jer bir sonday jer bolar mángilikke bayrami yoq“ bo'lib qolgan. G'azalning ohangi, tarjimasi ham o'quvchini qoniqtirmasa kerak.

Asliyatda:

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor  
Hajrdin dardi-yu lekin vasldin darmoni yo'q.

„Hajrning dardi bo'la turib, vasl umidi bo'lmasa-da, ishqdan voz kechma demoqch shoir. Baytda bor-yo'q so'zlari qarama-qarshi qo'yilib, tazod san'atidan foydalanilgani ko'rinib turibdi. Tarjimon bu ma'noni tugal berolmagan.

Qiyoslang:

Áy, Nawayı, ol jerde jazıqsız jaza kóp. Jáne,  
Ayralıq dárti bar. Biraq, yardı kórer imkanı yoq.

Baytda „ol jerde jazıqsız jaza kóp, jáne“ degan so'zlar qo'llanilgan. Bu g'azal badiiyatiga putur yetkazib, tarjima qora so'zga aylanib qolgan. G'azaldan Navoiy ijodi uchun bosh masala bo'lgan insonlikning mohiyati unda ishqning borligidir degan xulosa chiqadi. „Yorsiz ko'ngil“ deganda, ishqqa begona ma'nosidan tashqari, haqqa intilmagan, muqaddas narsasi yo'q, e'tiqodsiz odam degan ma'no ham yashiringan. Afsuski, bu ma'no tarjimada buzilgan.

G'azal aruzning ramali musammani mahzuf yoki maqsur (foilotun, foilotun, foilotun, foilun yoki foilon) vaznida yozilgan. Taqtesi: - V / V / V/ V yoki (V~). Tarjimada esa vazn saqlanmagan. Qofiyalari: sultoni, joni, rayhoni, toboni, hayvoni, rizvoni, imkoni, darmoni; Tarjimada: sultani, janı, rayxani, jananı, hāywani, dármanı, bayramı, imkanı. Radifi: yo‘q. G‘azalda boshidan oxirigacha tadrij san’atidan foydalanilgan.

Ochig‘i, Navoiyning „Yo‘q“ radifli g‘azalining qoraqalpoqcha tarjimasidan qoniqmadik. G‘azal mulkining sultoni deb ta’riflangan shoir asarlarini bunday yuzaki tarjima qilish qanchalik to‘g‘ri. Aslida tarjimonning muvaffaqiyatli tarjima qilgan g‘azallari ham bor. Tarjimonning barcha tarjimalari sifatsiz demoqchi emasmiz. Maqsadimiz Navoiyning barcha g‘azallarining qoraqalpoqcha tarjimalari ham asl nusxalaridek badiiy saviyada jaranglab tursa ekan deymiz. Bu ishga tarjimonlar yuksak mas’uliyat, katta iste’dod bilan yondashishlari zarur degan fikrdamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Áliysher Nawayi. Gázzeller. Nókis: „Qaraqalpaqstan“ baspasi, 2020, 80 bet.
2. M.Shayxzoda. Asarlar 6 tomlik. 5-tom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T.-1973.
- 3.Qaraqalpaq tiliniň tusindirme sózligi. Tórt tomlıq. II.G – K. „Qaraqalpaqstan“ baspasi. Nókis – 1984.
- 4.G‘.Salomov „Til va tarjima“ O‘zbekiston „Fan“ nashriyoti. T– 1966.